

SIFATLAR PRESUPPOZITSIYASI.

Rahimova Maftunaxon Odilovna

Qo`qon DPI filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori

Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi

Qo`qon DPI O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sifatlarning ma`no jihatdan gap tarkibida qo`llanilib, presuppozitsiya hodisasiga ishora qilishi va yashirin ma`no ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, sifatlar ifodalagan yashirin ma`no (presuppozitsiya) sifatlar orqali tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: presuppozitsiya, pragmatika, sifatlar presuppozitsiyasi, yashirin ma`no, pragmatik aspekt, kontekst, sifatlarning ma`no turlari.

Nazariy adabiyotlarda ta`kidlanishicha, presuppozitsiya matnni “semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtida ayrim so`z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o`zining eng ixcham shakliga ega bo`ladi. So`zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo`lishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113].

Presuppozitsiya – til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog`liq xususiyatlarini yashirin yo`l bilan namoyish etuvchi lingistik hodisa bo`lib, sifatlarda muayyan tashqi va ichki omillar ta`sirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi. Til birligining pragmatik jihatini namoyish qiladi. So`zlovchi borliqning muayyan parchasi haqidagi axborotni gapda bevosita ifoda etishni lozim topmaganda presuppozitsiya hodisasiga murojaat qiladi. Bu hodisa ma`lum matn ifodalayotgan propozitsiyani to`g`ri tushunilishiga imkon beradigan so`zlovchilar o`rtasidagi “bilishning umumiy fondi”, “oldindan bilishning jami – bilishlarning” sifatida belgilanadi [2:28]. Presuppozitsiyaning asosiy belgisi matn orqali bayon qilingan

propozitsiyaga – hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatning anglashinishidir. Til ekonomiyasi hisobiga gapda bevosita aks etmagan axborotga ishora qilish vazifasi shu gap tarkibidagi biror bo`lak zimmasiga yuklatiladi va shu orqali presuppozitsiya hodisasini yuzaga kelishiga asos bo`ladi. Masalan, “G`aniyevning qaytargan zaharxanda javobi har qanday kitobxon qalbini larzaga soladi. Insonga bu qadar mehr-muhabbatli munosabatni adib qalamiga mansub barcha asarlarida ko`rish mumkin” (Xurshid Do`stmuhammad “Mashhurlikning bir siri” maqolasi). Ushbu gapda ajratib ko`rsatilgan til birliklari presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi uchun signal vazifasini bajarmoqda. Shu birliklarning signali tufayli gaplar mazmunidan yana bir axborotni, ya`ni yashirin axborotni anglab olamiz. Agar shu birliklar tushirib qoldirilsa bu yashirin axborotlar ham yo`qoladi. Bunday holatda ushbu til birliklari: zaxarxanda, mehr-muhabbatli presuppozitsiya signaliga aylanadi. Natijada gap mazmuni semantik (mazmuniy) jihatdan murakkablashadi, ya`ni bu signallar orqali “G`aniyevning og`zidan yaxshi gap chiqmaydi” degan presuppozitsiya (yashirin axborot) ni ko`rshimiz mumkin.

Aksariyat hollarda sifatlarning lug`aviy ma`nosi orqali gapda muayyan presuppozitsiyaga yo`l ochiladi. Sifatlarning ma`nolarini ifodalab kelgan so`zlar ham gapda ma`lum bir presuppozitsiyaga ishora qiladi va gapning murakkablashuvini yuzaga keltiradi. Sifatlarning ma`no va munosabatiga ko`ra turlaridan yuzaga chiqadigan presuppozitsiyani misollar orqali ko`rib o`tamiz:

- Xususiyat bildiruvchi sifatlar
- Holat bildiruvchi sifatlar
- Rang-tus bildiruvchi sifatlar
- Maza-ta`m bildiruvchi sifatlar
- Hid bildiruvchi sifatlar
- Hajm-o`lchov bildiruvchi sifatlar
- O`rin bildiruvchi sifatlar
- Payt bildiruvchi sifatlar

Xususiyat bildiruvchi sifatlar gapda o`zi ifodalayotgan ma`no bilan birga qo`shimcha ma`no ham yuklab keladi, ya`ni gapning mazmunidan yana bir qo`shimcha ma`no anglashiladi. Bu esa presuppazitsiya hodisasining yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Masalan, “rahmatli” so`zi “Xudoning rahmatiga loyiq kishi” ma`nosini ifodalaydi [4:48]. Bu so`z vafot etgan kishilarga nisbatan qo`llanadi. Nutqda shu so`zni qo`llash orqali yashirin presuppozitsiya ifodalanadi. “Rahmatli Fozil bobolari tunukasoz bo`lgani, u kishi arab, fors, turk, rus tillarida gaplasha olishini, o`sha-o`sha badiiy adabiyotga doimiy oshno ekanliklarini aytib berdilar” (Xurshid. Do`stmuhamed. “Uch lavha”) gapida “rahmatli” so`zi o`zi bog`lanib kelgan Fozil bobolari so`zi bilan shaxsning bu dunyodan o`tganligi to`g`risidagi “Tunukasoz Fozil bobo vafot etgan” degan presuppozitsiyaga yo`l ochadi.

Holat bildiruvchi sifatlar ham shaxs yoki predmetning ma`lum darajadagi holatini ifodalab keladi va gapning mazmuniy munosabatiga ta`sir qiladi, ma`no muakkablashuviga sabab bo`ladi. Masalan, “Hasanali o`zining tetik gaplari bilan o`tirganlarni lol qoldirdi” (Abdulla Qodiriy, “O`tkan kunlar”) gapini olaylik. Ushbu gapda tetik holat bildiruvchi sifati orqali yashirin presuppozitsiyaga ishora qilmoqda, ya`ni o`quvchi gapning mazmunini yaxshi anglagan bo`lsa “Hasanali hali baquvvat, gap-so`zlari va fikrashi bilan har qanday vaziyatdan chiqib keta oladi” degan presuppozitsiyani anglashi mumkin.

Shu bilan birga rang-tusni ifodalovchi sifatlar orqali ham presuppozitsiya hodisasiga yo`l ochilishi mumkin: “Oddiyroq, qora ish bo`lsa bo`laveradi” (Xurshid. Do`stmuhamed. “Dev bilan pakana”) gapida qora so`zi ish leksemasi bilan bog`langan holda rang ma`nosini emas, balki ishning og`irligi, qiyinligi, qo`l mehnatiga asoslanganligi xususida axborot tashuvchi presuppozitsiyaga ishora qiladi. Shu sababli qora ish bo`lsa bo`laveradi gapidan “ishning og`irligi, qiyinligi” presuppozitsiyasi anglashiladi.

Maza-ta`m bildiruvchi sifatlar ham konteks tarkibida ma`lum bir ma`no ifodalashi bilan birga uning yashirin ma`nosiga, ya`ni presuppozitsiyaga ishora

qiladi. Masalan, “Umar zakunchi bu **achchiq** haqiqatdan qutulish uchun Ra`noni Toshkentga olib ketdi” (O`tkir Hoshimov, “Ikki eshik orasi”). Achchiq so`zi aslida taom va oziq-ovqatlarag nisbatan qo`llanadi. Lekin bu yerda haqiqat so`zi bilan birikib, “haqiqatning achchiqligi, yomonligi, tan olib bo`lmas tarajada” degan presuppozitsiyaga ishora qilyapdi.

Hid bildiruvchi sifatlar qaysi so`z bilan birikib kelmasin kontekstda bitta ma`noda qo`llanadi. Qolgan ma`nolari presuppozitsiya sifatida o`sha so`z qatnashgan gapning mazmuniy tuzilishida yashirin anglashiladi. Masalan, “Muncha ham qo`lansa odam ekansiz, do`qini qarang-a” (B. Rahmonov, “Yurak sirlari”). Ushbu gapda **qo`lansa** so`zi hid ma`nosini emas, balki “qo`pol yoqimsiz” degan presuppozitsiyani yuzaga keltirmoqda: “Muncha ham qo`pol, yoqimsiz odam ekansiz”. Yana bir misol orqali ko`rib o`tamiz: “Yursa ham, tursa ham hayolida uning – Qodirqulning qo`lansa gapi”. **Bu gapda ham qo`lansa so`zi hid ma`nosini ifodalagan emas. Yursa ham, tursa ham xayolida uning - Qodirqulning yoqimsiz, xunuk gapi. Bu gapni o`qigan o`quvchi tasavvurida Qodirqul obrazi va uning gaplari salbiy qiyofada yuzaga keladi, ya`ni “uning og`zidan yaxshi gap chiqmagan” degan yashirin ma`noni anglab olishimiz mumkin.**

Bundan tashqari hajmni ifodalovchi sifatlar ham presuppozitsiyaga ishorani yuzaga keltiradi: “**Kichik** odam ekanim bois **og`ir** kunlarda u kishining joniga oro kirolmaganimni aytdim” (O`tkir Hoshimov, “O`zbeklar”). **Kichik** sifati aslida narsa-predmetning yoki shaxsning yoshiga nishbatan qo`llaniladi. Bu yerda esa odam so`zi bilan birikib, “**maydaroq**” lavozimda ishlaydigan shaxs” degan yashirin ma`noni anglatgan. Shu gap ichida kelgan og`ir so`zi vazn-o`lchov ma`nosini emas, balki “**qiyin, ilojsiz qolgan** kunlarda” degan yashirin ma`noda qo`llangan.

O`rin-payt ma`nosini bildiruvchi sifatlar o`rin va payt munosabati bilan birga gap tarkibida ma`lum bir yashirin ma`noni ham ifodalaydi. Masalan, “Uning oqish yuzi **ichki** kechinmalarini aks ettirardi” (P. Qodirov, “Uch ildiz”). Ushbu gapda ichki so`zi o`rin ma`nosi bilan birga kishining ruhiy dunyosiga va kechinmalariga

oid dunyoqarashini bildirib kelgan, ya`ni “uning oqish yuzi ruxiy dunyosini, kechinmalarini, qalbini aks ettirardi” degan presuppozitsiyani anglab olishimiz mumkin.

Ma`lum bo`ladiki, sifatlar presuppozitsiyasi gapda nutqiy vaziyat bilan bog`liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to`g`ri tushunilishia nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so`zlovchi va tinglovchiga oldindan ma`lum bo`lgan umumiylar bilimlar hamda nutq egalarining til ko`nikmalari yordamga keladi. Anglashiladiki, presuppozitsiya hodisasi tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq obyekti haqidagi bilimlari tushunchalari bilan zich bog`lanadi va gapning semantik tuzilishi bilan bog`liq hodisa sifatida mahsus tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. A. Nurmonov, N. Mahmudov, O`zbek tilining mazmuniy sintaksi. –T, 1992. B-113.
2. N. Mahmudov, Presuppozitsiya va gap. –T, 1986. B-28.
3. M. Hakimov, M. Gaziyeva, Pragmalingvistika asoslari. –T, 2020
4. A. Madvaliyev, O`zbek tilining izohli lug`ati. –T, 2006-2008. B-48.